

**O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025 yil 2-chorak
yakunlari bo‘yicha korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqidagi oraliq
HISOBOT**

Milliy qonunchilik talablari va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ichki tartib-qoidalariga amal qilgan holda 2024 yil dekabr oyidan boshlab Vazirlik markaziy apparati va bo‘sunuvdagi tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlar haqida ma‘lumot berish uchun jismoniy va yuridik shaxslar uchun aloxida aloqa kanallari yaratildi. Mazkur kanallar haqidagi ma‘lumotlar Tashqi ishlar vazirligi va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallar orqali ham tarqatildi.

2025 yil 2-chorak yakunlari bo‘yicha, yolga qo‘yilgan aloqa kanallari Vazirlik mas‘ul bo‘linmasiga markaziy apparatda yoki bo‘ysunuvdagi tashkilotlarda mansabdor shaxs vazifalarini bajarib kelayotgan diplomatik xazmat xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy holatlar yoki shunga oid huquqiy qonunbuzarliklar to‘g‘risida murojaatlar kelib tushmadi.

Shunga qaramasdan, Vazirlik tomonidan mazkur yonalishdagi maqsadli choralar ko‘rilishi davom ettiriladi. Doimiy ravishda Vazirlik mas‘ul bo‘linmalari tomonidan tashkilot tizimida hozirgi kunda mehnat qilayotgan xodimlar va ishga yangi qabul qilinayotgan mutaxassislariga korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari va bu borada davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklatilayotgan qo‘shimcha majburiyatlar, ulardan kelib chiqadigan javobgarlik to‘g‘risida tushuntirish va zarur maslahatlar berib borish ishlari nazoratga olingan.

Shuningdek, mazkur jarayonga jalb etilgan Vazirlik tizimidagi mas‘ul bo‘linmalar xodimlariga ularning xizmat vazifalari yuzasidan amaliy tavsiyalar berilmoqda va ularning samarali ijro etilishiga ko‘maklashilmoqda. Jumladan, mas‘ul xodimlarning yuqorida qayd qilingan toifadagi murojaatlar bilan sifatli va tezkor ishlash borasida professional tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga e‘tibor qaratilmoqda.

**O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligining
Komplaens nazorati xizmati**

2025 yil 2 iyul